

EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI


Arolova Zarina Lochin qizi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

TRENDS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN ENVIRONMENTAL SECURITY

Arolova Zarina Lochin qizi, Student of Shakhrisabz State Pedagogical Institute

ТЕНДЕНЦИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аролова Зарина Лочин кызы, студент Шахрисабзского государственного педагогического института



<https://orcid.org/0009-0006-9839-6403>

e-mail:

azamovastora04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik xavfsizlikni rivojlantirish maqsadida o'simlik olami bioxilma-xilligini yaratish va hozirgi vaqtda tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi va ozon qatlaminig siyraklanishi sababi haqida aytib o'tilgan. Ekologik xavfsizlikni yaratish uchun yanada mukammal darajada, barqaror rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish zarurati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, ozon qatlami, atmosfera, fan-texnika inqilobi, BMT, kislotali yomg'ir, biosfera.

Abstract: This article discusses the creation of biodiversity of the plant world in order to develop ecological security, the problem of the current reduction in the number of plant and animal species in living nature and the cause of the depletion of the ozone layer. The article discusses the need to develop more advanced, sustainable development trends to create ecological security.

Keywords: ecological security, ozone layer, atmosphere, scientific and technological revolution, UNO, acid rain, biosphere.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы создания биоразнообразия в растительном мире в целях обеспечения экологической безопасности, современная проблема сокращения численности видов растений и животных в живой природе, а также причины истощения озонового слоя. Обсуждалась необходимость разработки более устойчивых тенденций развития для создания экологической безопасности.

Ключевые слова: экологическая безопасность, озоновый слой, атмосфера, научно-техническая революция, ООН, кислотные дожди, биосфера.

KIRISH (BVEDENIYE / INTRODUCTION).

Bugungi kunda sayyoramizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularning kamayib ketishining oldini olish jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligi alohida ta'kidlanmoqda. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida dunyo e'tiborini

Orol dengizining ekologik fojiasiga qaratdi. Uning qurishi oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faollashtirishni talab qiladi[1].

XX asr o'rtalarida yuzaga kelgan va yangi ming yillikda yanada jadallashgan ekologik globallashuv jarayonlari "inson-tabiat" munosabatlari xarakteriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Insoniyat tabiiy muhitga avvalgi tarixiy davrlardagi kabi lokal emas, global miqyosda ta'sir ko'rsata

boshladi, buning oqibatida sayyora ekotizimi umumsayyoraviy miqyosda o'zgaradigan obyektiv realikka aylandi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishi ekologik globallashuvning avj olishiga sharoit yaratib berdi[2]. Shu bois ekologik xavfsizlik tizimini yaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ekologik xavfsizlikka ta'rif berishda ko'pchilik uni tabiatni muhofaza qilish deb tushunadi. Vaholanki, ekologik xavfsizlikning obyekti ancha keng bo'lib, u tabiiy xavf-xatar natijasida inson, jamiyat va davlatning ekologik manfaatlariga jiddiy zarar yetishi bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqib, ekologik xavfsizlik deganda inson, jamiyat va davlatning ekologik manfaatlari, tabiiy atrof-muhitning buzilishi natijasida yetkazilgan va yetkazilishi mumkin bo'lgan zararining oldini olish va uni bartaraf qilish tushuniladi. Hozirgi vaqtda ekologik xavf-xatar iqlim o'zgarishi, havo haroratining ko'tarilishi, bioxilma-xillikning kamayishi, yer maydonlarining degradatsiyaga uchrashi, atrof-muhitning ifloslanishi, suv resurslarining taqchilligi hamda sifatining yomonlashuvi, cho'llarning kengayishi, aholining ko'payishi natijasida tabiiy zahiralaridan yanada ko'proq foydalanish, texnika va sanoat korxonalarining rivojlanishida namoyon bo'lmoqda. Yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'simliklar dunyosi, ayniqsa, o'rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Aholi sonining ortishi, xo'jalik faoliyatining kengayishi tufayli tabiatda inson qo'li yetmagan joy qolmayapti.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

S.M.Turabdjano, M.M.Aripova, L.S.Raximova kabi tadqiqotchilarning "Ijtimoiy ekologiya" kitobida [3] ekologik xavfsizlikni yaratish, tobora globallashib borayotgan ekologik muammolarning ildizini aniqlash kerakligi ta'kidlab o'tilgan. Ushbu ekologik xavfsizlik barqaror rivojlanish strategiyalarining muhim masalalari sifatida ko'riladi. O'zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlik bo'yicha muhim qonunlar ishlab chiqildi. Unga ko'ra har bir hududda suv, elektr, gaz kabi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida yangi tizim joriy etildi. Ekologik xavfsizlik barqaror taraqqiyotning asosiy omilidir. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida dunyo hamjamiyati tomonidan Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab

chiqilib, unda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosiy masalalar sifatida e'tirof etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagi 95-son qaroriga muvofiq "Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnika reglamenti" qabul qilindi [4]. Mazkur umumiy texnik reglament mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va utilizatsiya qilish jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda majburiy talablarni belgilaydi.

Mazkur maqolada mavzuning mohiyatini yoritishda, zamonamizning ekologik muammolari shiddat bilan ko'payib borayotganligi uchun uni insonlar ongiga tez yetib borishi maqsadida, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi uslublardan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Insoniyat yaralgandan boshlab tabiat bilan hamkorlikda yashab kelmoqda. Shu boisdan hozirda atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha ekologik xavfsizlik talablari qo'yilmoqda.

Asosan ekologik barqaror rivojlanish maqsadi bu – ekologik muhofazadir.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, atrof-muhit muammolarini bartaraf etish, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish kabi maqsadlarga alohida e'tibor qaratilgan. Yurtimizda 2021-yildan hozirga qadar "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida jami 725 million tup mevali va manzarali daraxt ekildi. 588 gektar "yashil bog", 662 gektar "yashil jamoat parki", Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 kilometr masofada "yashil belbog" barpo etildi [2].

Oqilona iste'mol g'oyasi XX asrning oxirlarida va XXI asrning boshlarida ijtimoiy va ekologik harakatlar orqali paydo bo'lgan. Oqilona iste'mol – bu resurslarni samarali va mas'uliyatli ravishda ishlatishni ta'minlaydigan, odamlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iste'mol usulidir. Oqilona iste'mol, ayniqsa, global isish va atrof-muhit muammolariga e'tibor qaratgan holda, jamoatchilik va davlatlar o'rtasida muhim mavzuga aylandi. 2012-yili Rio-de-Janeyroda BMTning barqaror taraqqiyot bo'yicha "Rio+20" nomini olgan Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Sammit ochilishida so'zga chiqar ekan, BMTning Bosh kotibi Pan Gi Mun insoniyat yangi davrga qadam qo'yayotganligini qayd etdi. U 2040-yilga borib Yer sharining aholisi 9 mlrd ga ko'payishini hisobga olib,

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eski modeli o'z ahamiyatini yo'qotganligini ta'kidladi. Ma'ruzada 2030-yilga kelib dunyo aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji 50%, elektr quvvatiga 45%, suv zahiralari esa 30% o'sishi ta'kidlandi. Buni amalga oshirish uchun esa zudlik bilan "yashil iqtisodiyot"ni joriy etish zarur, deydi Pan Gi Mun [3]. Bugungi kunda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich AQSH, Janubiy Koreya, Germaniya, Shvetsiya, Daniya, Gollandiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar o'tmoqda.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yer yuzida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyotni ta'minlash borasida samarali faoliyat olib borishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli kattadir. Dunyo davlatlarini o'zaro muloqot, hamkorlik va hamjihatlikka chorlash, ularning kuch va imkoniyatlarini yaratuvchanlik yo'lida birlashtirish, ya'ni eng dolzarb masalalarni hamjihat hal qilish ushbu tashkilot tomonidan 2015-yilga qadar qabul qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlarida, 2016-yilda esa barqaror rivojlanish maqsadlarida o'z ifodasini topdi. Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish 2016-yilning 1-yanvaridan boshlanib, 2030-yilning 1-dekabrida yakunlanishi lozim [5].

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda ham tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilikni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan, maqsadli davlat dasturlari, milliy harakat rejalari hayotga tatbiq etilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim qismi bo'lgan ushbu xayrli ishlarda jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda. Amalga oshirilayotgan bunday keng ko'lamli va izchil chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda istiqloq yillarida atmosferaga zararli moddalarni chiqarish 2 barobar, ifloslangan oqova suvlarni oqizish 2,2 barobar kamaytirildi. So'nggi bir necha yilda qishloq xo'jaligida pestitsidlardan foydalanish 5 barobar qisqartirildi, sanoat korxonalarida ekologik xavfsiz texnologiyalar keng joriy etilmoqda, ishlab chiqarish chiqindilari chuqur qayta ishlanib, tozalash qurilmalari modernizatsiya qilinmoqda[2]. Bu esa nafaqat ekologik, balki katta iqtisodiy samaralar berayotgan bo'lsa-da, aholining ekologik madaniyatini oshirish hamda tabiatni asrab-avaylash ularning eng oliy burchi ekanligini uqtirish lozim. Ijtimoiy ekologik muammolarni hal etish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarbdir. Bunda

savolnoma tuzish yoki test so'rovlarini o'tkazish yaxshi samara beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida aytish lozimki, ekologik xavfsizlikni, barqaror rivojlanishni ta'minlashda ekologik qonunchilikni takomillashtirish choralari sifatida tabiat obyektlarini muhofaza qiladigan qonunlarni umumlashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni esa tabiiy resurslardan foydalanish huquqining alohida sohalari: yer, suv, kon, o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishga oid qonunlar bilan tartibga solish maqsadga muvofiqdir. Fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi yashash huquqi kabi tabiiy huquqlar sirasiga kiradi. Shu bois fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash borasida tadbirlar amalga oshirish lozim. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi bizni o'rab turgan tabiiy muhitni muhofaza qilishga, fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashga, umuman olganda, hozirgi va kelajak avlod uchun ona tabiatni asrashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 440 b.
2. Azamova.S.A. Ekologik globallashtirish sharoitida O'zbekiston umumta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024.
3. Turabjanov S.M., Aripova M.M., Raximova L.S. – Ijtimoiy ekologiya. – Toshkent: Book Trade, 2022. – 284 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 95-sonli Ekologik xavfsizlik to'g'risida umumiy texnik reglamenti to'g'risidagi qarori.
5. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization". *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.